



ZAMONAVIY O'ZBEK VA NEMIS SHE'RIYATIDA QISH OBRAZINING POETIK TALQINI: RAMZIY MA'NOLAR VA FALSAFIY MUSHOHADALAR

Muallif: Ma'diyeva Adiba Dovudovna¹

Affiliyatsiya: O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Jahon tillari kafedrası katta o'qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15201402>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek va nemis she'riyatida qish obrazi qanday talqin etilishi, uning ramziy va poetik ma'nosi tahlil qilinadi. O'zbek shoirlari Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo, Zebo Mirzo va Xosiyat Rustamova ijodida qish fasli inson ruhiyati, taqdir sinovlari, sabr va yangilanish ramzi sifatida namoyon bo'lsa, nemis shoirlari Anya Kampmann, Jan Vagner, Nora Gomringer va Monika Rink asarlarida qish falsafiy mushohada, ruhiy poklanish va vaqt bilan bog'liq ichki anglash jarayoni sifatida tasvirlanadi. Har ikki adabiy maktabda qish obrazining musaffoligi, sokinligi va sirli mohiyati poetik mahorat bilan yoritilgan.

Kalit so'zlar: qish obrazi, zamonaviy she'riyat, ramz, ruhiy mushohada, o'zbek va nemis adabiyoti, poetik tasvir

O'zbek zamonaviy she'riyatida **qish** obrazi musaffolik, tabiatning qahraton qiyofasi va inson ruhiyatiga o'ziga xos ta'sirli ramziy ma'no kasb etadi. Shoirlar qish faslining sovuq tabiati orqali insonning ichki kurashlari, sabr va bardosh motivlarini yoritishda mahoratli talqinlar yaratadilar.

*Qishlar bunda oq dasturxon tuzatgaydir,
Qismat yana ne o'yinlar ko'rsatgaydir?*

Sirojiddin Sayyidning ushbu misralarida qish obrazi ikki qarama-qarshi ma'noda talqin etiladi: "oq dasturxon" qishning musaffoligi, yangilanish ramzi bo'lsa, "qismat yana ne o'yinlar ko'rsatgaydir?" satri faslning kutilmagan sinov va hayratlarga boyligini ifodalaydi. Oq tinchlik va poklik timsoli sifatida, qish esa hayotning o'zgaruvchanligi, vaqt sayin inson taqdirining noaniqligini ifodalovchi omil sifatida tasvirlangan. Shoir qishning osoyishtaligi va sirli mohiyatini go'zal poetik uyg'unlikda ochib beradi.

Iqbol Mirzo ijodida misralarida qish faslini sukunatini shunday tasvirlaydi:

*Qor bosdi chinorlar oxiri dovur
Chinorlar-qorlarning soyasi.²*

Qor bosgan chinorlar tabiatga inson xislatinni berib, qorning chinorlarga o'rmalab kelishiga o'xshatilgan. "Oxiri dovur" iborasi faqat qishning emas, balki umr va zamonning tugashini ham eslatadi. Chinor bardavomlik va hayot ramzi bo'lsa, uni

¹ Сайид С. "Уйингдаги бешиklar". Тошкент: Ёзувчи нашриёти., 1996. - Б. 3

² Мирзо И. Танланган шеърлар.- Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти., 2002. – Б. 28

qoplagan qor sukunat va o'tkinchilik timsolidir. "Chinorlar – qorlarning soyasi" misrasi esa kuchli poetik metaforaga asoslangan. Chinorlar o'z asliyatida emas, balki faqat qorlar ichida yo'q bo'lib, soyaga aylangandek tasvirlanadi. Qisqa va jarangdor ifodalar bilan shoir qishning sokinligi va tabiatga hukmronligi yorqin poetik ta'sir bilan yoritgan.

Zebo Mirzo ijodida qish obrazi sovuqlik, insonga ta'sir etuvchi haroratli quvvati tasvirlanadi. Jumladan, uning quyidagi misralarida uning ikki xil tabiati yorqin aks ettirilgan:

*Yuzlarimga qish qahrin sepib
Eshik zulfin o'ynardi shamol...³*

Ilk misrada qattiq sovuq ta'siri inson yuragiga singganday tasvirlanadi. "Eshik zulfin o'ynardi shamol" satri esa shamolni jonlantirib, uni shunchaki tabiat hodisasi emas, balki jonli aksi bilan gavdalantiradi. Bu tasvir orqali shoir qishning ham sovuq va og'ir, ham o'ziga xos jadal va sirli tomonlarini ochib beradi. Shoir lo'nda, ammo kuchli metaforik iboralar bilan qishning ruhiyatga ta'sirini, uning go'zalligi va beayovligining o'zaro uyg'unlikda ta'sirli aks ettirgan. Bu, albatta, uning poetik mahoratini, so'z orqali tasvir yaratishdagi nozik sezgisini namoyon etadi.

Xosiyat Rustamova qish faslini shiddatli va hukmron kuch sifatida tasvirlaydi:

*Sovuq kunlar ochdi bag'rini,
Qahr bilan qish keldi kirib.
Bog'lar inon-ixtiyorini
Qarg'alarga qo'ydi topshirib.⁴*

"Sovuq kunlar ochdi bag'rini" iborasi qishning chekinmas ta'sirini, keyingi satr esa uning shafqatsizligini ta'sirli darajada tasvirlaydi. Qish inson kabi butun tabiatga hukmronligi ifodalangan. "Bog'lar inon-ixtiyorini qarg'alarga qo'ydi topshirib" satri esa tabiatning sokinlashishini ramziy aks ettiradi. Xosiyat Rustamovaning so'zi va obrazlari qishning sovuq bo'lsa-da, his-tuyg'ularga ta'sir qiluvchi jilolarini ham ochib beradi. Bu esa uning she'riyatida fasllarning inson qalbi bilan uyg'un tasvirlanishidan dalolat.

Zamonaviy nemis she'riyatida qish obrazi nafaqat tabiatning sukunatga cho'mgan davri, balki inson tuyg'ulari va teran mulohazalarini yorituvchi universal ramz sifatida namoyon bo'ladi. Shoirilar qishning sovuq, yorug'likning kamayishi va tabiatning zohiran mustahkam, ammo botinan murakkab qiyofasini jonli va ramziy tarzda tasvirlab, uning inson ruhiyati bilan uzviy bog'liqligini o'ziga xos poetik uslublarda aks ettiradilar.

Anya Kampmann qish faslini o'tmishning abadiylik o'rtasidagi uzviy munosabatni ko'rsatuvchi ramz sifatida tasvirlaydi:

*all die gewundenen alten geschichten
zeichnen sich in den himmel
nur als umriss nur als linie des winters
der schweigt.⁵*

³ Мирзо З. Ишқ... – Тошкент: Академнашр, 2011. – Б. 39

⁴ Рустамова Х. Девор. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. Б. 101

⁵ Kampmann A. Proben von Stein und Licht.- München: Carl Hanser Verlag, 2016. – S. 86

*Qadim chigal tarix- hikoyalarning
chiziladi samo sahnida aksi
Go'yo ko'rinadi ular soyasi
faqat sokin qishki chizgilar kabi.*

(Tarjima bizniki – M.A.)

Tarix osmon yuzasida chizgilar kabi namoyon bo'lish ifodasi vaqt izlarini anglatadi. Qish sukunati vaqtning tinch, ammo chuqur o'yga chorlovchi pallasini aks ettiradi, ya'ni u faqat sovuq fasl emas, balki xotiralar va hayotning so'ngsiz oqimi aks etadigan, sokinlikda teran falsafiy mushohadaga chorlaydigan ramzdir. Shoir o'ziga xos minimalistik uslub bilan qish sukunatida abadiylik aksini ifodalab, hissiyot va tafakkurni uyg'otuvchi poetik tasvir yaratadi.

Yan Vagner ham qishni insonning o'z- o'zini anglash pallasini va introspektiv vaqt sifatida tasvirlaydi:

*ein grübeln, grübeln;
im winter die erleuchtung
als scheibe von eis.⁶*

*O'y suramiz, o'ylar suramiz;
Qishning shaffof havosi poklar uni
muzning bo'lagi kabi.*
(Tarjima bizniki – M.A.)

"Ein grübeln, grübeln" (O'y suramiz, o'ylar suramiz) takrori tafakkur, ichki mulohaza jarayonini teran ifodalaydi. "Im Winter die Erleuchtung" iborasi qish faslini ruhiy oydinlashuv, insonning ichki mushohadalari ortidan keladigan anglash onlari bilan bog'laydi. Muzning shaffofligi kabi qish ham insonni ma'nan poklaydi, fikrlarini tiniqlashtiradi, biroq u sovuq, ehtimol, bu degani- u og'riqli bo'lishi ham mumkin. Shoir qish obrazini minimalistik, lekin kuchli poetik ramz sifatida yoritib, inson tafakkurini ichki sokinligini teran aks ettiradi.

Nora Gomringer qishni uning vizual ta'sirchanligi va hissiy ziddiyatlari orqali o'ziga xos tarzda tasvirlaydi:

*Alles ist weiß
der See voller Eis.
Der Schnee ist kalt,
der Frühling kommt bald.⁷*

*Atrof- oppoq tus
Ko'l- to'la muz
Qor- qahraton
Ko'klam kelar on.*

(Tarjima bizniki – M.A.)

Atrofning oppoq manzarasi qishning sof havosi, uning vizual qiyofasini ifoda etib, uning yangi sahifasini ochadi. Shoir muz bilan qoplangan ko'l tasviri orqali qishning sovuq hukmronligiga, lekin bu fasl umidli iliq haroratni yetaklashiga ishora qiladi. She'rdagi "weiß" va "Eis" kabi so'zlarning ritmik uyg'unligi qish tasvirining musiqiylik va

⁶ Wagner J. Regentonnenvorstellungen. Hanser Berlin im Carl Hanser Verlag München 2014.- S 230

⁷ Gomringer N. Wortsege. - KG Dillingen/Saar. Krüger Druck+Verlag GmbH & Co., 2013. – S. 14

ohangdorligini oshiradi. Shoira qishni ham sovuqlik va sukunat fasli, ham yangilanish va orzu-umidlar davri sifatida talqin qiladi.

Monika Rink qish faslini kuchli hissiy taassurotlar davri sifatida tasvirlaydi:

Ich krieche. Romantik. Überwältigung, die ich begrüßen kann.

Es ist schon spät, es wird schon kalt. Wald. Wald...⁸

Sudralib boraman, hayajon ichra qarshi olar meni sukunat.

Hammayoq zimiston, qish qahraton. O'rmon bag'rida...

(Tarjima bizniki – M.A.)

"Ich krieche" (Sudralib boraman) iborasi qishning keskin harorati oldida o'zini ojiz his qilishi bilan bog'liq. "Romantik. Überwältigung" so'zlari esa ruhni zabt etuvchi hayratli ta'sirini ochib beradi. O'rmon qahraton qishda ham mavjud, inson esa u bilan uyg'unlashishga majbur. Shoira qishni hissiyotlar, tabiat va ongni o'rab oluvchi hislar davri sifatida tasvirlab, uning sirli va ta'sirchan jihatlarini kuchli badiiy ifodalar orqali yoritadi.

O'zbek va nemis zamonaviy she'riyatida qish obrazi inson va tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ma'naviy va hissiy jihatdan yuksak darajada aks ettirsa-da, umumiy va farqli talqinlarga ega. O'zbek she'riyatida qish hayot sinovlari, bardosh va qismat ramzi sifatida tasvirlanib, Sirojiddin Sayyid uni yangilanish va sirli mo'jiza fasli sifatida, Iqbol Mirzo va Zebo Mirzo esa sukunat va ichki tahlil timsoli sifatida talqin qiladi. Xosiyat Rustamova esa qishning qahraton va hukmron kuchini ta'kidlab, uni tabiat va inson ruhiyatini jilovlovchi omil sifatida yoritadi. Umuman olganda, o'zbek she'riyatida qish sinovli, lekin poklovchi va yangilovchi fasl sifatida tasvirlanadi. Nemis she'riyatida esa qish falsafiy anglash va ichki mushohada fasli bo'lib, Anya Kampmann uni tarix va abadiyat timsoli, Yan Vagner insonning ichki anglash jarayoni bilan bog'laydi. Nora Gomringer qishning vizual go'zalligiga urg'u berib, uni kelajak umidi bilan uyg'unlashtirsa, Monika Rink qishni inson va tabiatning uyg'unligi ramzi sifatida tasvirlaydi. Har ikkala adabiyotda ham qish o'tkinchilik va chuqur mushohada fasli sifatida namoyon bo'ladi, biroq o'zbek she'riyatida u bardosh va hayotiy tajriba timsoli sifatida ramziy hamda istioraviy ifoda etilsa, nemis she'riyatida esa inson ruhiyatining falsafiy izlanish maydoni sifatida talqin qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Сайид С. "Уйингдаги бешиклар". Тошкент: Ёзувчи нашриёти., 1996. - Б. 3
2. Мирзо И. Танланган шеърлар.- Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти., 2002. – Б. 28
3. Мирзо З. Ишқ... – Тошкент: Академнашр, 2011. – Б. 39
4. Рустамова Х. Девор. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. Б. 101
5. Kampmann A. Proben von Stein und Licht.- München: Carl Hanser Verlag, 2016. – S. 86

⁸ Rinck M. Honigprotokolle. Gedichte. Druck & Bindung: Steinmeier, Deiningen. 2. Auflage 2014., s-29

6. Wagner J. Regentonnenvorarbeiten. Hanser Berlin im Carl Hanser Verlag München 2014.- S 230
7. Gomringer N. Wortsegel. - KG Dillingen/Saar. Krüger Druck+Verlag GmbH & Co., 2013. – S. 14
8. Rinck M. Honigprotokolle. Gedichte. Druck & Bindung: Steinmeier, Deiningen. 2. Auflage 2014., s-29

